

Единый портал корпоративной информации

Существенные факты

“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ

06. Решения, принятые высшим органом управления эмитента, в том числе решения наблюдательного совета хозяйственных обществ о выпуске акций, корпоративных облигаций и иных ценных бумаг

1.	НАИМЕНОВАНИЕ ЭМИТЕНТА	
	Полное:	“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyati
	Сокращенное:	“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” AJ
	Наименование биржевого тикера:	IMKF3
2.	КОНТАКТНЫЕ ДАННЫЕ	
	Местонахождение:	Andijon viloyati, Andijon shahar, A.Temur shox ko'chasi, 44-A
	Почтовый адрес:	170100, Andijon viloyati, Andijon shahar, A.Temur shox ko'chasi, 44-A
	Адрес электронной почты:	info@imkonfinans.uz (mailto:info@imkonfinans.uz)
	Официальный веб-сайт:	www.imkonfinans.uz (https://www.imkonfinans.uz)
3.	ИНФОРМАЦИЯ О СУЩЕСТВЕННОМ ФАКТЕ	
	Номер существенного факта:	6
	Наименование существенного факта:	Решения, принятые высшим органом управления эмитента, в том числе решения наблюдательного совета хозяйственных обществ о выпуске акций, корпоративных облигаций и иных ценных бумаг
	Вид собрания:	заседания наблюдательного совета
	Дата проведения собрания:	31.01.2024

Дата составления протокола собрания:	31.01.2024	
Место проведения собрания:	Andijon shahar, A.Temur shoh ko'chasi 44-a uy.	
Кворум собрания:	100,00	

№	Вопросы, поставленные на голосование	Итоги голосования					
		за		против		воздержались	
		%	количество	%	количество	%	количество
1	“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyatining korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish	100,0	3	0	0	0	0
2	“IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyatining korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish to'g'risidagi qaror hamda emissiya risolasini tasdiqlash	100,0	3	0	0	0	0

№	Полные формулировки решений, принятых общим собранием
---	---

1

1.1. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyatining resurs bazasini oshirish maqsadida jamiyat korporativ obligatsiyalarning to’rtinchi chiqariluvini muomalaga chiqarilishiga ruxsat berilsin. 1.2. Obligatsiyalarni muomalaga chiqarish miqdori, shartlari, muddatlari va obligatsiyalarning har biri bo’yicha to’lanadigan daromadlarni belgilash tartibi quyidagicha belgilansin: - chiqarilishdagi obligatsiyalarning miqdorini egasining nomi yozilgan foizli, hujjatsiz shaklda, 10 000 (o’n ming) dona, nominal qiymati 1 000 000 (bir million) so’mdan bo’lgan, umumiy summasi 10 000 000 000 (o’n milliard) so’m deb belgilansin; - ushbu chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar jamiyatning o’z kapitali miqdori doirasidan yuqori bo’lganligi sababli, emissiyaning to’liq qiymatini sug’urta tashkilotining sug’urta polisi bilan ta’manilangan holda muomalaga chiqarilsin; - jamiyat obligatsiyalarining sug’urta tashkilotining sug’urta polisini taqdim etuvchi sifatida “GLOBAL INSURANCE GROUP” sug’urta tashkiloti aksiyadorlik jamiyati belgilansin; - ushbu chiqarilishdagi bir dona obligatsiyalarning qimmatli qog’ozlarning uyushgan savdolaridagi boshlang’ich bahosi nominal qiymatida, ya’ni 1 000 000 (bir million) so’mni tashkil qiladi; - mazkur chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar soni cheklanmagan investorlar o’rtasida ommaviy usulda (ochiq obuna yo’li bilan) joylashtiruvini amalga oshirilsin; - obligatsiyalar chiqarilishi davlat ro’yxatidan o’tkazilgan sanadan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kun davomida joylashtiruvini amalga oshirilsin; - obligatsiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risidagi xabar ommaviy axborot vositalariga e’lon qilingan sanadan boshlab 15 (o’n beshinchi) kundan hisoblansin. Agar obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi bank hisob-kitob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to’g’ri kelsa, bu holda obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi ushbu kunlardan keyingi birinchi ish kuniga ko’chirilsin; - obligatsiyalarning joylashtirishning tugash sanasi – mazkur chiqarilishning so’nggi obligatsiya joylashtirilgan kun. Biroq obligatsiyalarni joylashtirishni yakunlanish sanasi, mazkur chiqarilish qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga solish bo’yicha vakolatli davlat organida davlat ro’yxatiga olingan kundan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kundan oshmasligi lozim; - ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar uchun to’lovlar qimmatli qog’ozlarning uyushgan savdo tashkilotchisi qoidalariga muvofiq tuziladigan bitimlar asosida naqdsiz pul o’tkazish yo’li bilan hisob-kitoblarni O’zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshirish. Obligatsiyalar bo’yicha pulsiz vositalar bilan to’lovlar amalga oshirilmasin; - obligatsiyalarning muomala muddatini – obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan sanadan 1 080 (bir ming sakson) kun qilib belgilash. Mazkur muddat foizlarni to’lash maqsadida har bir 30 kunga teng bo’lgan 36 ta oraliq davrlarga bo’linsin; - ushbu obligatsiyalarning har biri bo’yicha to’lanadigan daromad miqdorini yillik (kupon stavkasi) 28 (yigirma sakkiz) foiz qilib belgilansin; - obligatsiya egasiga belgilangan muddat oralig’ida obligatsiyaning nominal qiymatidan (amaldagi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda foiz daromadidan to’lash manbaidan ushlab qolingani soliqni inobatga olgan holda) obligatsiyalarni chiqarish bo’yicha o’rnatilgan shartlarida foizli daromad olish huquqini berilsin; - obligatsiyalar bo’yicha foizli daromadlar jamiyat tomonidan tegishli oraliq davrning oxirgi sanasida tuzilgan obligatsiyalar egalari reestrda ro’yxatdan o’tgan obligatsiya egasiga to’lab berilsin, bunda: • bitta obligatsiyaga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 va 12-chi oraliq davr uchun foizli daromad quyidagicha aniqlansin: $D_n = N * C_n * (E - E_f) / 365$, bunda: D_n – obligatsiyalar bo’yicha hisoblangan foizli daromadlari; N – obligatsiyaning nominal qiymati; E – 30 kunlik joylashtirish davrlarning oxirgi sanasi; E_f – hisoblangan oraliq davrdagi, obligatsiyaning sotib olingan sana; C_n – obligatsiyalar bo’yicha foiz stavkasi (yillik hisobda), n-oraliq davrning tartib raqami ($n=1, 2, 3, 4...12$). **Izoh: Foizli daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilash. • bir obligatsiyaga har bir oraliq davr uchun yillik foizli daromad miqdori quyidagi formula bo’yicha aniqlansin: $D_n = N * C_n * E / 365$, bunda: D_n – obligatsiyalar bo’yicha hisoblangan foizli daromadlari; N – obligatsiyaning nominal qiymati; E – 30 kunlik joylashtirish davrlarning oxirgi sanasi; C_n – obligatsiyalar bo’yicha foiz stavkasi (yillik hisobda), n-oraliq davrning tartib raqami ($n=1, 2, 3, 4...36$). **Izoh: Foizli daromad miqdori bir tiyinga qadar aniqlik bilan belgilash. 1.3. Obligatsiyalarni muddatidan oldin so’ndirish ehtimoli va shartlarini belgilash tartibi quyidagicha belgilansin: - obligatsiyalarni so’ndirish sanasi, joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 1081 (bir ming sakson bir) kunga o’tgan kun

2	<p>2.1. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyatining obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror 1-ilovaga muvofiq tasdiqlasin. 2.2. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyatining obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi emissiya risolasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlasin. 2.3. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyati obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror va emissiya risolasini imzo bilan tasdiqlash vakolati Kuzatuv kengashi raisi Teshabayev Akmaljon Ergashevichga berilsin. 2.4. “IMKON FINANS mikromoliya tashkiloti” aksiyadorlik jamiyati obligatsiyalar chiqarilishi to’g’risidagi qaror va emissiya risolasini davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun topshirish vazifasini jamiyat Boshqaruv raisi O’.Ziyaydinovga berilsin.</p>
---	---

Текст вносимых изменений и (или) дополнений в устав	mavjud emas
---	-------------

Ф.И.О. руководителя исполнительного органа:	О'.S.Ziyaydinov
Ф.И.О. главного бухгалтера:	N.N.Olimov
Ф.И.О. уполномоченного лица, разместившего информацию на веб-сайте:	A.M.Komilov

Данная публикация на корпоративном веб-сайте эмитента (<https://www.imkonfinans.uz/public.php?db=issuer>)

Источник: <https://openinfo.uz/ru/facts/77406/>

Дата: 25.06.2026